

**-BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIKLARIDA SINTAKSIS BO'LIMIGA OID
TUSHUNCHALARNING BERILISHIDAGI UZVIYLIK**

Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna

Farg'ona davlat universiteti professori Filologiya fanlari doktori (DSc)

Usmonova Mashhura Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *boshlang'ich sinf o'quvchilari, yoshi va bilish darajasidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, tilshunoslikning murakkab ichki tuzilishini, nutqning mayda bo'laklarini to'liq atamalar-yu, ilmiy isboti bilan o'rgana olishmaydi. Ular to'rt yil davomida, asosan, to'g'ri talaffuz va yozish qonun-qoidalari bilan tanishadilar. Bu esa o'quvchilarga filologik bilimlarni o'rtanishni kechiktirishga sabab bo'la olmaydi, chunki ular ijtimoiy hayotga allaqachon kirishib, atrof-muhit bilan kommunikatsiya o'rnatishga ulgurgan. Ularning ma'lumot bazasida axborot yetkazish uchun tayyor qoliplar mavjud. O'quvchi maktabga kelguniga qadar tasavvurida shakllantirgan vositalardan o'rinli, mazmunli foydalanishga o'rgatish boshlang'ich ta'limni o'rgatuvchi o'qituvchiga bog'liq. Darsliklarda berilganlardan to'g'ri foydalana bilish va o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazib berish ham – katta bir mahorat.*

Ushbu maqolamiz davomida Sintaksis bo'limiga oid qaysi tushunchalar kichik maktab yoshidagi bolalarga berilishi va ulardan qanday ko'nikmalar hosil qilinishi kerakligini tadqiq qilamiz. Maqola Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga dars o'tuvchi ustozlarga hamda shu maqsadda ta'lim olayotgan talabalarga foydali bo'ladi deb o'ylaymiz.

Grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq davom etadigan va kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ancha murakkab jarayondir. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarni tashkil etishda o'rganiladigan tushunchaning lingvistik mohiyatini, bilimlarni o'zlashtirish jarayonining psixologik-didaktik xususiyatlarini, o'quvchilarning nutqiy va aqliy o'sishi bir-birini taqozo etishini, Grammatik bilimni nutqdagi asos qilib oladi.¹ Shu sababdan ham biz ushbu maqolamizda Tilshunoslikning keng qamrovli bo'limlaridan biri bo'lgan Grammatikaning bir qismi Sintaksis bo'limi haqidagi nazariy ma'lumotlar va boshlang'ich sinf o'quvchilariga aynan qaysi qismi o'rgatilishini tahlil qilamiz.

Sintaksisga kirish boshlang'ich sinflarda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlab olishni o'rgatishdan boshlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar yozuvda gaplarni oxirida qo'yilgan tinish belgilariga qarab kontekstdan ajratib, tanib olishadi. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari bilan o'quvchilarni tanishtirish shu jihat bilan ham Sintaksis bo'limiga kirish vazifasini bajaradi.

Nutqimizda gaplar quyidagi maqsadlardan biri uchun ishlatiladi:

¹ Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. — Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

1. Xabar berish. Men maktab o'quvchisiman.
2. So'rash, aniqlash. Singling keldimi?
3. Buyurish undash. Uylarni yig'ishtir.
4. Istak-xohish bildirish. Qani endi, u ham kelsa...

Shunday bo'lsa-da, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirish jarayonida tinish belgilari muhimligi uchun quyidagicha turlanadi va qoidalashtiriladi:

1. Xabar, darak mazmunidagi gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi.
2. So'roq mazmunini bildirgan gaplar oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.
3. His-hayajon mazmunidagi gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi.

Yozma nutqda bitta gap ikkinchi gapdan nuqta (.), so'roq belgisi (?) yoki undov belgisi (!) bilan ajratiladi. Vergul eng qisqa pauzani bildiradi. Shu tarzda o'quvchilarni Punktatsiya bo'limi bilan ham tanishtirib o'tiladi.

3-sinfga yetganda qoidalarga qo'shimcha ravishda buyruq gaplarga ham to'xtab o'tilgan: "Buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan gaplar buyruq gaplar deyiladi. Buyruq gapning oxiriga nuqta qo'yiladi."²

Endi Gap haqidagi umumiy tushunchalarni o'rganadigan bo'lsak. Tugallangan ohang va fikrga ega bo'lib, kesimlik shakllari vositasida ifodalangan, muomalaning eng kichik vositasi hisoblangan yakka so'z yoki so'zlar yig'indisiga gap deyiladi. Gapning quyidagi belgilari mavjud:

1. Muomalaning eng kichik birligi;
2. Nisbatan tugallangan fikrni bildiradi;
3. Grammatik jihatdan shakllangan bo'ladi;
4. Tugallangan ohang bilan aytiladi.³

Boshlang'ich sinf Ona tili darsliklarida gapning quyidagi xususiyatlari sanab o'tilgan:

- a) Gap tugallangan fikrni bildiradi
- b) Gap so'zlardan tuziladi
- c) Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi.

d) Gap kim (kimlar) yoki nima (nimalar) haqida aytiladi va ular haqida fikr bildiradi.

Gap haqida ma'lumot berilayotganda uning bir necha turlarda bo'lishi mumkinligi qoidalar va mashqlar orqali sxemalar yordamida ko'rsatiladi.

Bahor.

Bahor keldi.

O'lkamizga bahor keldi.³

Mashqlar davomida esa quyidagi shakldagi topshiriqlarni ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi gaplarni moslashtiring:

Inson sog'lom va kuchli bo'lishi uchun	kitob bilan do'st bo'ling
Vaqtidan unumli foydalanish uchun	sport bilan shug'ullanishi kerak
Bilimli va nutqi ravon bo'lishni istasangiz,	kun tartibiga rioya qiling

² Baynazarova D. Ona tili (3-sinf uchun darslik 3-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023.– 93 b.

³ Ahronqulova

Yuqoridagilar atov gaplar, yig'iq va yoyiq gaplar, qo'shma gaplarning bir ko'rinishi, lekin tushuntirish jarayonida ularga ilmiy yondashilmaydi. Dars davomida shu kabi katakchalar ko'rsatilib, sxemaga mos gaplar tuzing kabi topshiriqlar beriladi. O'quvchilar ko'rib turgan qoliqlariga kundalikda foydalanadigan gaplaridan misollar keltirishadi. Bundan tashqari darslikda berilgan rasmi mashqlar bolalar ongida shakllangan Gap haqidagi tushunchaning mazmunini to'g'ri anglab yetishlariga yordam beradi. Mashqlar va beriladigan topshiriqlar yil sayin murakkablashib boradi.

To'rtinchi sinfga kelib o'quvchilar kesimlik shakllari, bog'lovchi vositalar haqida to'liq tushunchaga ega bo'ladilar. 4-sinf Ona tili darsligida fe'llarning shaxs-son, zamon shakllariga oid mavzu davomida gap haqida quyidagi klaster ko'rsatilib, so'ngra bosh bo'laklarning shaxs-sonda mos bo'lishi, tuslanishi ularning qo'shimchalari to'g'risida qoida berilgan. Ot so'z turkumi bilan tanishtirishda esa turlanish haqida ko'nikma hosil qilish uchun mashqlar berilgan.

Tugallangan mazmun

97-mashq.

Quyidagi fe'llarni namuna asosida tushang: chizdi, bo'yadi, keldi, yurdi.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	Yozdim, yozaman, yozay(in)	Yozdik, yozamiz, yozayik
II shaxs	Yozding, yozasan, yoz(gin)	Yozdingiz, yozasiz, yozing(iz)
III shaxs	Yozdi, yozadi, yozsin	Yozdilar, yozadilar, yozsinlar

2-mashq. Qoidada xato berilgan so'zlarni to'g'rilab, yoddan ko'chiring.

Xatolarni toping!

Tilda 2 ta shaxs bor:

I shaxs	o'zga
II shaxs	so'zlovchi
III shaxs	tinglovchi

-m, -im, -miz, -imiz – II shaxs;
-ng, -ing, -ngiz, -ingiz – III shaxs;
-i, -si, -ti – I shaxs egalik qo'shimchalidir.

O'quvchilar gaplarni matndan, nutqdan ajratib olishni o'rganganlaridan so'ng uning ichki tarkibi bilan tanishishni boshlaydilar. Gaplar ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro grammatik va ma'no jihatdan bog'lanishi natijasida vujudga keladi, demak, Sintaksis bo'limidan keyingi o'rganadigan birligimiz – bu So'z birikmasi. Bilamizki, so'zlar bir-biri bilan ikki xil bog'lanadi: teng va tobe, ammo kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshi hamda bilim doirasidan kelib chiqib bu tushunchani ularga aytmaymiz, lekin pedagog bu borada yetarlicha bilimga ega bo'lishi kerak.

Teng bog'langan so'zlar, odatda, uyushiq bo'laklarni hosil qiladi. Tobe bog'lanish ikki xil sintaktik birlikni vujudga keltiradi. a) gap; b) so'z birikmasi. Shaxs-son qo'shimchalari yordamida bog'lanish gapni, qolgan vositalar (kelishik, ko'makchi, egalik, so'z tartibi va ohang) yordamidagi bog'lanish so'z birikmasini hosil qiladi. ⁶

So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi:

1. Otli so'z birikmasi(ot, sifat, son, ravish va otlashgan so'zlar)
2. Fe'lli so'z birikmasi. ⁷

Uchinchi sinf Ona tili darsliklarida berilgan qoidada otli va fe'lli so'z birikmalariga misollar keltirilgan: (Nimalar?) Mazali mevalar (nima qiladi?) pishadi. Mevalar so'ziga mazmunan bog'langan so'zga so'roq bering: (qanday?) mazali mevalar.⁸

⁴ Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili (4-sinf uchun darslik 2-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 88 b.

⁵ Baynazarova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik 3-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 93 b.

⁶ Ahronqulova

⁷ Ahronqulova

⁸ Baynazarova D. Ona tili (3-sinf uchun darslik 3-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 93 b.

Tobe bog'lanish jarayonida so'zlar ikki qismdan iborat bo'ladi. Ergash so'z va bosh so'z, ular o'zaro quyidagi usullar yordamida birikadi:

1. Boshqaruv. Bosh so'zning talabi bilan ergash so'zning ma'lum grammatik vositani olishi boshqaruv deyiladi. Boshqaruvda ergash so'z bilan bosh so'zning birikishi ikki xil bo'ladi:

a) Kelishikli boshqaruvda ergash so'z bilan bosh so'z o'zaro tushum, jo'nalish, o'rin-payt yoki chiqish kelishigi qo'shimchasi yordamida birikadi.

b) Ko'makchili boshqaruvda ergash so'z bilan bosh so'z o'zaro ko'makchilar yordamida birikadi.⁹

4-sinf Ona tili darsligining 2-qismi to'lig'icha so'zlarning kelishiklar bilan turlanishi, Ot so'z turkumining yasalişini o'rganishga bag'ishlangan, lekin gapda so'zlarning ko'makchilar bilan kelishi nazariy jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatilmaydi, ammo sinfdan tashqari mashg'ulotlar davomida bolalar o'zlari tomonidan savollar berilsa, tushuncha berib o'tish mumkin. Mavzular davomida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ganing -ka va -qa shakllari ham borligini, tushum, o'rin-payt kelishigi otni fe'lga, chiqish kelishigi esa o'zi birikib kelgan so'zni otga va fe'lga bog'lab kelishi kabi ma'lumotlar mavzulardagi qoidalar ichida keltirib o'tilgan. Kishilik olmoshlariga egalikva kelishik qo'shimchalari qo'shilishi natijasida yuz beradigan tovush o'zgarishi haqida ma'lumot berilmagan.

2. Moslashuv. Tobe so'zning hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida, hokim so'zning esa tobe so'zga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi moslashuv deyiladi. Bu bosh so'z bilan ergash so'zning shaxs-sonda mosligidir. Ega va kesim ham moslashuv usuli yordamida birikadi. 4-sinf 2-qism Ona tili darsligida qaratqich kelishigiga oid qoidalar qatorida Qaratqich kelishigi otni otga bog'lab kelishi haqida aytib o'tilgan. Ma'lumotlarni yaxshilab o'zlashtirib olish uchun quyidagicha mashqlar berilgan:

9-mashq. O'qing. Gaplarda takrorlanib kelayotgan bir xil otlarni aniqlang. Ularga ajratilgan so'zlar orqali so'roq bering. Shu otlarni ajratib ko'rsatilgan so'zlar bilan birga ko'chiring.

- Kitob – bilim manbai.
- Kitobning har sahifasi bizni ilm bulog'i sari yetaklaydi.
- Kitobni avayla, uni yirtmagin.
- Kitobga ruchka bilan chizmagin.
- Kitobda dunyo va jonzo'tlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan.
- Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q.

Gapda otlar boshqa so'zlarga qaysi qo'shimchalar orqali bog'lanadi?

10

25-mashq. Qaratqich kelishidagi otga mos so'zlar topib, so'z birikmalari tuzing va yozing.

Berilgan otga mos otlar tanlab, so'z birikma tarzida yozing.

Jamolning

Daraxtning

ko'zi

kitobi

11

3. Bitishuv. Ergash so'zning bosh so'z bilan Grammatik vositasiz, faqat ma'no jihatdan yoki so'z tartibi yordamida birikishi bitishuv deyiladi. Bitishuvda ergash so'z avval, bosh so'z keyin keladi: tiniq suv, katat ko'cha. Tobe bog'lanishning bu turi haqida ham boshlang'ich sinf darsliklarida qoida berilmagan.

⁹ Ahronqulova

¹⁰ Baynazarova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik 2-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 11-bet

¹¹ Baynazarova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik 2-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 22-bet

Ba'zan gap tarkibidagi so'z bir so'zga nisbatan hokim, boshqa so'zga nisbatan esa tobe holatda bo'lishi yoki bir hokim so'z bir necha tobe so'zga, bir tobe so'z bir necha hokim so'zga bog'langan bo'lishi mumkin. So'z birikmalarining bu holati so'z birikmasi zanjiri deb ataladi. 4-sinf Ona tili darsligida so'z birikmasi zanjiriga oid tushunchani shakllantirish uchun quyidagicha qoida berilgan:

Gapda so'zlar ma'nosiga ko'ra ma'lum bir vazifani bajaradi. Mustaqil ma'noga ega so'z gapning bo'lagi deyiladi. "Diyora uni o'zining kutubxonasiga olib kirdi", – gapida fikrni o'ziga qaratayotgan bo'lak Diyora bo'lsa, u haqida fikr bildiruvchi bo'lak olib kirdi so'z birikmasidir (ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasiga oid bilimlar yuqori sinflarda o'rgatiladi). Gapdagi boshqa so'zlar gapning asosiy mazmunini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Uni o'zining kutubxonasiga.¹²

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi gap bo'lagi deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir.

Gap bo'laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Gap bo'laklari ikki turli bo'ladi: bosh va ikkinchi darajali bo'laklar. Ega va kesim bosh bo'laklari, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol ikkinchi darajali bo'laklar hisoblanadi.¹³

Gapning markazini tashkil etib, boshqa bo'laklarni o'z atrofiga birlashtiruvchi, tasdiq-inkor, shaxs-son, zamon va mayl ma'nolarini ifodalovchi bosh bo'lak kesim deb ataladi. Ot kesim, fe'l kesim, ularning sodda va murakkab holatda kelishi haqida gapirib o'tirilmaydi.

Gap kesimidan anglashilib turgan harakatning kim yoki nima tomonidan bajarilganligini bildirgan bo'lak egadir.

Boshlang'ich ta'limda faqatgina egali gaplar bilan nazariy tanishiladi.

Egasiz gaplar: shaxsi umumlashgan, shaxsi ma'lum, shaxsi noma'lum gaplar, atov gaplar, so'z gaplar haqida ma'lumot berilmaydi. Aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol – barchasi Ikkinchi darajali bo'laklar tarzida umumlashtirib qo'yiladi va ularning tagiga to'lqinli chiziq tortiladi.

Quyida 4-sinf darsligida berilgan qoidadan namuna keltiramiz:

"Gapning asosiy mazmunini tashkil etgan gap bo'laklari bosh bo'laklardir. Asosiy mazmunini to'ldirish uchun xizmat qiladigan bo'laklar ikkinchi darajali bo'laklardir. Masalan: Bilimli bola charchashni bilmaydi. Bola, bilmaydi – bosh bo'laklar; bilimli, charchashni – ikkinchi darajali bo'laklar."¹⁴

Biz hozir boshlang'ich sinf darsliklarida Sintaksis bo'limi haqidagi tushunchalarni o'rgatishga qaratilgan mashqlarni bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz. 1-sinfda beriladigan mashqlar quyidagicha ko'rinishda bo'ladi.

¹² Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili (4-sinf uchun darslik 2-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 88 b.

¹³ Ahronqulova

¹⁴ Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili (4-sinf uchun darslik 2-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 88 b.



tongda
qichqirdi
1 Erta
xo'roz



shaxmat
Bolalar
3 qatnashdilar
to'garagiga



3-mashq. Rasmlar asosida savollar o'rniiga mos so'zlarni toping va gaplarni ko'chiring.



Akmal
rasm
2 chiroyli
chizdi



tuvakda
gullar
4 o'stiradi
Umida



1. Akmal
(Kim bilan?)
(Nimani?)
tomosha qildi.

2. (Kim?)
(Kim bilan?)
(Qayerga?)
ketyapti.

3. Bolalar
(Nima bilan?)
(Nima?)
o'ynashyapti.

1-sinfda tayyor rasmlar va qoliplardan foydalanilgan bo'lsa, 2-sinf o'quvchilari uchun bu kabi topshiriqlar biroz murakkablashtirib beriladi.

1-mashq. Gapning qurilishini o'rganing.



Salima



koptokni



tepdi

Savol: Gap kim haqida?
Javob: Gap Salima haqida.
Savol: Salimanning nima qilganini qaysi so'z bildiradi?
Javob: "Tepdi" so'zi Salima nima qilganini bildiradi.
Demak, asosiy so'zlar: Salima, tepdi.

4-mashq. Nuqtalar o'rniiga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Shifokor odamlarni ...

... bolalarni o'qitadi.

Haydovchi yo'lovchilarni ...

Oshpaz ... pishiradi.

Yozuvchi asar ...

Hunarmand ... yasaydi.

9-mashq. Kim yoki nima haqida aytilganini bildiruvchi so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

- o (Kim?) ... odamlarni davolaydi.
- o (Nima?) ... yerni isitadi.
- o (Kim?) ... bolalarni o'qitadi.
- o (Nima?) ... asal yig'adi.
- o (Kim?) ... yo'lovchilarni tashiydi.
- o (Kim?) ... taom pishiradi.

Foydalanish uchun so'zlar:

oshpaz quyosh shifokor

o'qituvchi haydovchi asalari

O'quvchilar gap tarkibidagi so'zlarga to'g'ri savol berish ko'nikmasini hosil qilganlaridan keyin 3-sinf bo'lganlarida rasmlardan biroz chetlanib topshiriqlar berilgan.

4-mashq. Aralash berilgan so'zlarni bir-biriga bog'lab, gaplar tuzing.

1. Ra'no, parvarish, sevadi, uchun, gullarni, shuning, qiladi, doimo, ularni.
2. Bolalar, borib, kutubxonaga, qiziqarli, o'qishdi, kitoblar.
3. Ayiqcha, kapalaklar, o'ynadi, umbaloq oshib, bilan.

1-mashq. Gapning egasi yoki kesimini toping. Ikkinchi darajali bo'laklarni qo'shib, husnixat tarzida ko'chiring.

Namuna: Quruvchi baland binolarni quradi.

1. O'qitadi – (Kim?)
2. Shifokor – (Nima qiladi?)
3. Binolarni quradi – (Kim?)
4. Alla aytadi – (Kim?)
5. Haydovchi – (Nima qiladi?)

Ko'rib turganimizdek uchinchi sinfgacha o'quvchilar gap tarkibidagi so'zlarga to'g'ri savol berish, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni ajratib olish va gap bo'laklarini to'g'ri tartibda joylashtirish ko'nikmasini to'liq o'zlarida shakllantiradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sintaksis bo'limi tarkibidagi uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalma, kirish so'z, kirish birikma, sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar, to'liq va to'liqsiz gaplar, bog'langan, ergashgan, ko'chirma gapli qo'shma gaplar kabi tushunchalar haqida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlayotganda, zarurat tug'ilganda, o'quvchilar o'zlari qiziqib so'raganlarida, sinfdan tashqari ishlar olib borilganda og'zaki ma'lumot berib o'tish maqsadga muvofiq. Dars davomida bu tushunchalarni berish bolalarni chalg'itadi. Kichik maktab yoshida bolalar ijtimoiy hayotga allaqachon kirishib, atrof-muhit bilan kommunikatsiya o'rnatishga ulgurgan. Boshlang'ich ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad – o'quvchilarning ma'lumot bazasidagi axborot yetkazish uchun tayyor qoliplar va vositalardan o'rinli, mazmunli va unumli foydalanishga o'rgatish. Jarayon davomida darsliklarda berilganlardan

¹⁵ Aydarova U.B., Yuldasheva D.Sh. Ona tili (1-sinf uchun darslik 1-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2024. – 82-bet

¹⁶ Kuranov S. Ona tili (2-sinf uchun darslik 4-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 16-bet

¹⁷ Baynazarova D. Ona tili (3-sinf uchun darslik 3-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023.– 6,8-bet.

to'g'ri foydalana bilish va o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazib berish pedagogning mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. — Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
2. Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili (4-sinf uchun darslik 2-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 88 b.
3. Baynazarova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik 3-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023.– 93 b.
4. Baynazarova D. Ona tili (3-sinf uchun darslik 3-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023.– 93 b.
5. Aydarova U.B., Yuldasheva D.Sh. Ona tili (1-sinf uchun darslik 1-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2024. – 109 b.
6. Kuranov S. Ona tili (2-sinf uchun darslik 4-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 88 b.